TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

M.B.Islamova
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: islamova.moxichexra@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tahlil qilingan. Muammoli ta’lim, diskussiya, kritik fikrlash, refleksiya, kooperativ ta’lim kabilar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmlar sifatida qabul qilinib, ularning mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, pedagogik mexanizm, muammoli ta’lim, diskussiya, kritik fikrlash, refleksiya, kooperativ ta’lim.

Annatation: This article analyzes the pedagogical mechanisms of the development of critical thinking in students. Problem-based learning, discourse, critical thinking, reflection, and cooperative learning are considered as the main mechanisms for the development of critical thinking, and their content is revealed.

Keywords: critical thinking, pedagogical mechanism, problem-based learning, discourse, critical thinking, reflection, collaborative learning.

Tanqidiy fikrlash, o‘quv jarayonida talabalarning faolligini, mustaqil fikrlash qobiliyatini va muammolarni tahlil qilishdagi yondashuvini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, nafaqat talabaning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga, balki ularning kelajakdagi faoliyatida qarorlar qabul qilish, muammolarni hal etish va o‘z fikrlarini asoslash ko‘nikmalarini takomillashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy pedagogik mexanizmlari haqida so‘z boradi.

Tanqidiy fikrlash – bu ma'lumotni tahlil qilish, baholash, savol berish, muammo va uning yechimlari haqida mulohaza yuritish, fikrlarni taqqoslash va xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Tanqidiy fikrlash nafaqat ilmiy bilimlarni qabul qilish, balki bu bilimlarni amaliyotda qanday qo‘llashni, ularni muhokama qilish va rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy ahamiyati shundaki, u talabalarga:

- **Ma'lumotlarni mantiqiy va tahliliy tarzda qabul qilish**, ya'ni olingan bilimlar asosida mustaqil xulosalar chiqarish;
- **Qarorlar qabul qilishda mas'uliyatli bo‘lish**, har bir qarorning ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy oqibatlarini hisobga olish;
- **Mustaqil fikrlarni shakllantirish**, o‘z nuqtai nazarini shakllantirib, mustahkam asoslash;

• **Konfliktlarni hal qilish va muloqotda samarali bo‘lish** imkoniyatini yaratadi, talabalarga konstruktiv muloqot, jamoaviy ishlash va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda turli xil pedagogik maxanizmlar mavjud bo‘lib, pedagoglar turli metod va yondashuvlarni qo‘llashlari zarur bo‘ladi. Biz pedagogika fanlarini o‘qitishda foydalaniladigan asosiy pedagogik mexanizmlarning ayrimlari bilan tanishamiz.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng asosiy va muhim yondashuvlardan biri bu muammoli ta’lim texnologiyalaridir. Muammoli ta'lim (Problem-based learning - PBL) o‘quv jarayonida talabalarga real hayotdagi yoki ilmiy sohalardagi muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan metoddir. Bu yondashuvda talabalarga aniq javoblar o‘rnatilmaydi, balki ular turli variantlarni sinab ko‘rishlari va mantiqiy tahlil qilishlari kerak bo‘ladi. Shu tarzda, tanqidiy fikrlashga asoslangan metodika talabalarning muammolarni mustaqil ravishda hal qilishiga va o‘z bilimlarini baholashga yordam beradi. Tanqidiy fikrni rivojlantirish uchun talabalarga muammoli vaziyatlar taqdim etish foydalidir. Bu muammolarni tahlil qilish, turli xil yechimlarni topish va tanqidiy qarorlar qabul qilish talabadan puxta fikrlashni talab qiladi. Misol uchun, talabalar real hayotdagi masalalar, ilmiy yoki ijtimoiy muammolarni tahlil qilishlari mumkin.

Muammoli ta’lim metodini qo‘llash talabalarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

• Muammolarni tahlil qilish va ularga turli yechimlar izlash;

• Jamoaviy ishlashda bir-birining fikrlarini qabul qilish va teng huquqli bahs-munozaraga kirishish;

• O‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash va h.k.

Muammoli ta’lim texnologiyalaridan Pedagogika nazariyasi va tarixi, Pedagogik konflektologiya, Oila pedagogikasi, Ijtimoiy pedagogika kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish samarali hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning eng muhim pedagogik mexanizmi bu diskussiyadir.

Diskussiya — bu ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida ma'lum bir masala yoki mavzu haqida fikr almashish, bahslashish va qarashlarni ifodalash jarayonidir. Diskussiya o‘quvchilarning yoki ishtirokchilarning har xil fikrlarni tinglash, o‘z fikrlarini bildirish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish imkonini beradi. Diskussiya va muhokama jarayonlari talabalarning fikr almashish, turli nuqtai nazarlarni o‘rganish va asosli fikrlarni keltirish qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagog talabalarga muayyan mavzu bo‘yicha ochiq savollar berib, ularga argumentlarni ishlab chiqish va boshqalar bilan bahs-munozara qilish imkonini yaratishi kerak. Bu jarayon nafaqat tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, balki ijtimoiy va muloqot ko‘nikmalarini ham mustahkamlashga yordam beradi. **Fikr almashish** – talabalar bir-birining nuqtai nazarini tinglash va o‘z fikrini asoslashda o‘zaro yordam ko‘rsatadilar. **Muhokama** – jiddiy va konstrukttiv munozara orqali yangi fikrlarni yaratish, qarorlar va xulosalarni shakllantirish. Diskussiyalar talabalarni turli nuqtai nazarlarni ko‘rish, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish va o‘z fikrini asoslashga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonni to‘g‘ri boshqarib, har bir talabaning fikrini tinglashi va ular o‘rtasida izchil, maqsadga yo‘naltirilgan muhokama olib borishi kerak.

Diskussiya bir nechta asosiy maqsadga xizmat qiladi:

1. Fikr almashish — har bir ishtirokchi o‘z nuqtai nazarini ochiq va aniq ifoda etadi;

2. Yangi g‘oyalar va qarashlarni o‘rganish — boshqa ishtirokchilarning fikrlaridan foydalangan holda yangi qarorlar yoki yechimlar qabul qilinishi mumkin;

3. Qaror qabul qilish — biror masala yoki muammoni hal qilish uchun eng maqbul variantni topish.

Diskussiya konstruktiv va hurmatga asoslangan bo‘lishi kerak, shunda barcha ishtirokchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladi va to‘liq bahs olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan eng qiziq va noodatiy, doimiy foydalaniladigan mexanizm - savolga javob berish orqali kritik fikrlashdir.

Savolga javob berish, albatta, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning asosiy mexanizmidir. Talabalar faqat javobni eshitib qolmasdan, har bir javobni tekshirish, uni boshqa variantlar bilan solishtirish va o‘z fikrlarini asoslashlari zarur. Shu tariqa, talaba o‘z fikrini tanqidiy yondoshuvda

rivojlantiradi va mustahkam asosli qarorlar chiqarishga o‘rganadi. Dars davomida o‘qituvchi talabalar bilan savol-javob orqali munozara olib borishi, turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqish, ma’lumotni tahlil qilish va o‘z fikrlarini dalillar bilan asoslashga undashi muhimdir. Masalan, “Nima uchun?” yoki “Qanday qilib?” kabi savollar orqali talabalarni o‘z fikrini mustahkamlashga va o‘z fikrini boshqalar bilan baham ko‘rishga undash mumkin. Aslida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda to‘g‘ri savol berish o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki, savolning saviyasi va mantig‘idan bilish mumkinki, u muammoni, vaziyatni qanchalik to‘g‘ri tushunganini anglash mumkin bo‘ladi. Javob berish ko‘nikmasi ham insonda o‘zgaruvchan bo‘lishi lozim, sababi muammoni yoki vaziyatni chuqur anglagan sari javoblar ham chuqur va mukammallashib boraveradi. Natijada talabada kritik fikrlash paydo bo‘ladi.

Kritik fikrlash — bu muammolarni tahlil qilish, turli nuqtai nazarlardan qarab, ularni yaxshiroq tushunish va yechimlarni topish qobiliyatidir. Bu jarayonda shaxs yoki guruh mavjud axborotlarni, dalillarni va fikrlarni sinchiklab o‘rganadi, mantiqan to‘g‘ri va ishonchli xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Kritik fikrlashning asosiy tamoyillari quyidagilar:

1. Obektivlik: O‘z nuqtai nazaringizni emas, balki barcha tomonlarni va dalillarni inobatga olish;
2. Tahlil qilish: Masalani yoki fikrni bo‘laklarga ajratib, har bir qismini alohida o‘rganish;
3. Savollar berish: Fikrni qabul qilishdan oldin, unga oid savollar berish — bu yangi bilimlarni olish va xatolarga yo‘l qoyaslik imkonini beradi;
4. Dalil va asosga tayanganlik: Fikr yoki qarorni mustahkamlovchi dalillarni izlash va bu dalillarga tayanish;
5. To‘g‘ri qarorlar qabul qilish: Mantiqiy va aniq xulosalar chiqarish, shuningdek, qarorlarni muqobil yechimlar bilan taqqoslash.

Kritik fikrlash faqat intellektual jarayon emas, balki amaliyotdir. Masalan, biz hayotdagi qarorlarni, ishlash metodlarini, muammolarni hal qilishni, hatto kundalik vaziyatlarda ham kritik fikrlashni qo‘llashimiz mumkin. Bu nafaqat bilim va tafakkur, balki harakat va muammolarni hal qilishda samarali bo‘lish uchun ham zarurdir.

Kritik fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi usullarni qo‘llash mumkin: a) Doimo yangi fikrlarni o‘rganish va ular haqida qayta o‘ylash. b) Muammolarni hal qilishda turli nuqtai nazarlardan qarash. c) Kiritilgan axborotning to‘g‘riligini tekshirish. d) Mantiqiy xatolarni aniqlash va ularga yo‘l qo‘ymaslik kabilardir. Bu ko‘nikma ayniqsa ta’lim, ish va kundalik hayotda muvaffaqiyatga erishishda katta rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, **konstruktiv tanqid qilish** va **fikrlarni tahlil qilish** talabalar uchun muhim o‘rganish jarayonidir. Tanqidiy fikrlarni yaratish va ularga o‘z fikrlaringizni asoslash – bu nafaqat bilimlarni yaxshilash, balki mustahkam qarorlar qabul qilishning ham zarur vositasidir.

Tanqidiy fikrlarni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri bu refleksiya va o‘z-o‘zini baholashdir. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholash talabalarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, o‘rganilgan materialni qayta ko‘rib chiqish va uning samaradorligini baholash imkonini beradi. Bu mexanizm orqali talabalar o‘z bilimlarini yaxshilash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish usullarini topishga o‘rganadilar. O‘z-o‘zini baholash jarayoni tanqidiy fikrlashning muhim qismi hisoblanadi, chunki u talabalarga o‘z qarorlarini tahlil qilish va ularga yangi nuqtai nazardan qarash imkonini beradi. Talabalar o‘z ishlarini baholashga, o‘z fikrlarini tahlil qilishga va xatolaridan xulosa chiqarishga o‘rgatilishi kerak. O‘z-o‘zini baholash jarayoni tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, chunki bu jarayonda talabalar o‘z fikrlarini qanday asoslash va qanday qilib yanada aniqroq va puxta bo‘lishini tushunadilar.

Refleksiya bir qancha talablarni o‘z ichiga oladi: o‘rganilgan bilimlar haqida qayta fikr yuritishga undaydi; xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkonini yaratadi; o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun yangi yo‘llar izlashga rag‘batlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning yangi sayqallanayotgan pedagogik mexanizmi bu - kooperativ ta’limdir. Kooperativ ta'lim (Collaborative learning) metodologiyasi talabalarni guruhlarda ishlashga yo‘naltiradi. Guruhda ishlash, muhokama qilish va fikr almashish orqali talaba tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ular turli fikrlarni eshitish, o‘z fikrlarini baham

ko‘rish va kengroq nuqtai nazarlarni o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi. Kooperativ ta'limda talabalarning bir-biriga yordam berishi, o‘zaro fikr almashishi va umumiy xulosalar chiqarishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda guruh loyihalari usuli ham muhim ahamiyatga ega. Bu usul talabalarni real yoki nazariy loyihalar ustida hamkorlikda ishlashga, o‘zaro fikr almashish, bir-birlarining fikrlarini tahlil qilish va birgalikda qarorlar qabul qilishga o‘rgatadi. Bunday loyihalarni ishlab chiqish jarayonida talabalar hamkorlikda muayyan bir materialni yoki hodisani tahlil qilib, birgalikda tanqidiy fikrlar bildirishadi. Bu jarayon o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini jamoaviy tarzda rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashning yana bir pedagogik mexanizmi bu - **Kritik o‘rganish texnikalaridir.**

Kritik o‘rganish texnikalari orqali talabalarga ma'lum bir matn yoki kontentni tahlil qilish va uni tanqidiy ko‘rinishda baholashni o‘rgatish mumkin. Bu texnikalarga “Yuqori darajadagi savollar” qo‘llanilishi, analiz va sintez qilish, matnni ajratib ko‘rish va uning asosiy fikrlarini aniqlash kabi metodlar kiradi. Shu tarzda, talaba berilgan ma'lumotni faqat qabul qilmasdan, uni chuqur tahlil qilishga, xulosalar chiqarishga o‘rganadi. Bu texnikada kritik o‘qish va analitik yozish muhim hisoblanadi. Kritik o‘qishda talabalarga matnlarni nafaqat o‘qish, balki tanqidiy o‘qish va matnning ichki tuzilishini, muallifning nuqtai nazarini va maqsadlarini tahlil qilishni o‘rgatish nazarda tutiladi. Analitik yozishda esa talabalarga mustaqil ravishda tahliliy esse va fikrlarni yaratishni o‘rgatish maqsad qilinadi. Bu, o‘z navbatida, talabalarning fikrlarini aniq va izchil tarzda ifoda etish imkoniyatini oshiradi

Talabalarning tanqidiy fiklashini rivojlantirishning biz yuqorida izohlagan pedagogik mexanizmlarining har biri o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim jarayonlarida izchil foydalanilsa, tanqidiy tafakkur tarziga ega kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хачумян Т. И. Понятие “Критическое мышление” и его сущность в психолого-педагогической науке. Хачумян Т. И. // Теоретические вопросы культуры, образования и воспитания: сб. наук. пр. Вып. 24, часть 2. – Киев: Издательский центр КНЛУ, 2003.

2. Кочерга А. В. Взаимосвязь мышления, чувств и воображения в развитии критичности человека. В. Кочерга. Автореф. дис. канд. психол. наук : 19.00.01 Ин-т психологии им. Костюка АПН Украины. – М., 2003.

3. F.O. Xodjiyeva. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning didaktik asoslari (boshlang‘ich sinf o‘quvchilari misolida). p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2008.

4. Islamova M.B. Tanqidiy tafakkur” tushunchasining metodologik asoslari va o‘ziga xos xususiyatlari. Pedagogik fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlar: muammo va yechimlar//Respublika ilmiy amaliy konferensiyasi, Qo‘qon, 66-71 betlar.